

OLTIN BITIKLAR

БОШ МУҲАРРИР EDITOR IN CHIEF

Шухрат Сирожидинов

БОШ МУҲАРРИР ЎРИНБОСАРИ

Нусратулло Жўмахўжа

МАС'УЛ КОТИБ

Акмал Фармонов

ТАҲРИР ҲАЙАТИ EDITORIAL BOARD

Абдурашидов Зайнобиддин

Абдулла А'зам

Рейснер

Назаров Бахтиёр

Бобоёров Ғайбулла

Бёнд III (Корея)

Ҳасанов Нодирхон (Туркия)

Эртургул Яман (Туркия)

Эркинов Афтондил

Иса Хабибейли (Озарбайжон)

Журабоев Отабек

Каримов Наим

Керимли Теймур (Озарбайжон)

Оҳ Эункюнг (Корея)

Мирзаев Тўра

Онал Кая (Туркия)

Сатари Кимита (Япония)

Содиқов Қосимжон

Турдимов Шомирза

Зоҳидов Рашид

Юсупова Дилноза

Ушбу сон "Олтин битиклар" таҳририятида саҳифаланди.

Манзилимиз: Тошкент шаҳри, Яққасарой

тумани, Юсуф Ҳос Ҳожиб кўчаси 103-уй.

e-mail: oltinbitiklar@umail.uz

Тел.: (+99893) 588-69-74

Босишга 00.00 2019-йилда рухсат этилди

Қоғоз бичими 70x100 1/16/.

нашриёт босма табоғи: 8,5

Журнал 2017-йил 26 октябрда Ўзбекистон

Республикаси Матбуот ва ахборот агентлтиги

томонидан № рақами билан рўйхатдан

ўтган.

Таҳририятга келган кўлёмалар

тақриз қилинмайди ва муаллифларга

қайтарилмайди.

"оапроапрлрп" босмаҳонасида чоп этилди.

Буюртма № ? Адади 10000 дона.

Босмаҳона манзили: 100129 Тошкент,

Марказ 15, 1-уй. телефон: -99890 900 75 77

MUNDARIJA

Navoiy dunyosi

A.H.Shar'iy Juzjoniy. "Xazoyin ul-maoniy"ning tengsiz qo'lyozma nusxasi 2

Abdurasul Eshonboboev. Alisher navoiy sharq adabiyoti nazariyotchisi sifatida 7

Oysara Madalieva. Navoiy devonlarining sharqshunoslik instituti asosiy fondida Saqlanayotgan qo'lyozmalari..... 12

Nusratullo Jumaxo'ja. Talqinlarda shoirona shuur va ilmiy tafakkur 19

Tamaddunimiz ildizlari

Вера Мухамеджанова. Письменность, как фактор преемственности согдийской цивилизации 25

Manbashunoslik va matnshunoslik

Qosimjon Sodiqov. Qadimgi turkiy vasiqalar stilistikasi..... 42

Matluba Jabborova. Jamshid obrazining genezisiga doir..... 71

Zilola Shukurova. «Qisasi rabg'uziy»ning qo'lyozma va nashriy nusxalarida folklor namunalarning o'rni 86

Adabiyotshunoslik

Iqboloy Adizova. Amiriy adabiy merosida taxmislarning o'rni..... 96

Marg'uba Abdullaeva "Alanquvo" haqidagi hikoyatlarning qiyosiy tahlili..... 108

TALQINLARDA SHOIRONA SHUUR VA ILMIY TAFAKKUR

Nusratullo JUMAXO'JA,
filologiyafanlaridoktori

Abstract: *This article discusses diverse poetic angels of the prominent Uzbek poet of the XX century Erkin Vahidov. Erkin Vahidov was raised in a vibrant literary environment which profoundly contributed to the formation of the great poet's philosophical views. In his book "Poet, Poetry, and a Poetic Consciousness" ("Shoiru she'ru shuur") Vahidov shares his thoughts about his vigorous background; his love for the classical creators of ghazals such as Hafiz, Navai, Bedil, and Fuzuliy.*

Additionally, the author presents Vahidov's delicate and skillful abilities to compose in a classical genre and his talent to portray Navoi in his philosophical works.

The author further describes some aspects of Vahidov's book "The Beauty of the Word" ("So'z Latofati") and defines it as a literary essay representing his philosophical views. Vahidov's interpretations of Navoi's ghazals are the product of his poetic righteousness and scholarly consciousness.

Key words: *poetry, classical work, ghazal, literary essay, philosophical portrayal*

Erkin Vohidov Sharq mumtoz adabiyotiga yaqin muhitda o'sib-ulg'aygan, milliy mumtoz adabiyotga muhabbat ruhida tarbiyalangan, umrbod mumtoz adabiyot ruhiyati, kayfiyati bilan yashab ijod etgan, asarlari mumtoz tafakkur durdonalari bilan yo'g'irilgan mutafakkir shoir edi. Mumtoz adabiyot bilan ana shunday doimiy hayotiy hamnafaslik shoirning mumtoz g'azallarni adabiy sharhlashiga, bu bilangina qanoatlanmasdan, taxmislar yozib badiiy sharhlashiga asos bo'lgan.

Shoirda mumtoz g'azallarni sharhlash salohiyati shakllanishining asosiy omillaridan biri u o'sib-ulg'aygan muhitdir. Shoirning "Shoiru she'ru shuur" kitobidagi "Tarjimai holim" sarlavhali maqolasida ushbu muhit haqida shunday ma'lumot bor: "Toshkentda kechgan

bolalik va o'smirlik yillarimdan qolgan eng yorqin esdaliklar Ostrovskiy nomli pionerlar saroyidagi shoir G'ayratiy to'garagi va tog'amning xonadonida bo'lib turadigan adabiy suhbatlar bilan bog'liq. Tog'am kasbi yurist bo'lsa ham, adabiyot va san'atga qiziqqan, she'riyatni nozik tushunadigan kishi edi. Uyimizga shoir Chustiy, xonandalar aka-uka Shojalilovlar, Ma'rufxo'ja Bahodirov, keng bilim egasi bo'lgan olim, tarjimon Alixon Sog'uniy tez-tez kelib turishar edi. Mening she'riyatga qiziqishimni sezgan tog'am bu suhbatlardan meni ham bahramand qilardi. Oddiy pochta xizmatchisi Mulla Shukurjon aka, savdo xodimi Akmalxon akalarning zukko bahslariga mahliyo bo'lib o'tirar edim. Ular Hofiz, Navoiy, Bedil, Fuzuliy baytlarini tahlil qilib, har

birlari o'zlaricha talqin berib o'tirishardi. Bu suhbatlar ichkiliksiz, faqat she'r va qo'shiq kayfi bilan, askiya zavqi bilan muzayyan bo'lardi. Afsuski, bunday davralar endi kamayib, yo'qolib bormoqda" [Vohidov E., 1987: 6-7]. Qani endi hozir ham shunday muhit bo'lsa! Mazkur muhitning ahamiyati haqida "To quyosh sochgayki nur" kitobida ham olim va adiblarimiz qayta-qayta urg'u berganlar.

"Shoiru she'ru shuur" kitobidan olti g'azal talqini o'rin olgan. Salkam 20 yildan keyin chop etilgan "So'z latofati" kitobida esa yetti g'azal tahlili bor. Bunda oldingi kitobdagi olti g'azal talqini takror berilgan. Ularga qo'shimcha ravishda Alisher Navoiyning "Vahki, umrim barcha zoe bo'ldi el komi bila" boshlanmali g'azali talqini va shu shoirning bir g'azaliga muxammas ham ilova qilingan.

Nega E.Vohidov aynan shu g'azal-larga sharh yozgan? Bu juda qiziq! Aslida, mumtoz mutafakkirlarimizning shoirni maftun etmagan yoxud uning nazaridan chetda qolgan g'azali bo'lmasa kerak. Gap shundaki, shoir ruhiyat va kayfiyat odami. U hamisha mumtoz asarlar yodi bilan yashaydi. Shoirning yodi – xotirasi ham hamma vaqt mumtoz asarlar yodi bilan band. Shoir biror ish bilan mashg'ul yo nomashg'ul bo'lsin, u harakatda yo harakatsiz bo'lsin, bundan qat'i nazar, ong ostida mumtoz g'azallar jaran-glab turadi. Ayniqsa, kuy bastalanib, mohirona ijro etilgan g'azallar – mumtoz ashulalar shoir xayolini biror lahza tark etmaydi, diqqat markazidan tushib qolmaydi. Ana shu mungli va yangroq navolar uzluksiz takrorlanishi shoir tuyg'ularini tug'yonga keltiradi va qo'liga qalam olib sharhlashiga turtki bo'ladi. Shunda ko'ngli xiyol taskin-tasalli

topadi, bo'shaydi. Ana shuning uchun shoir aynan yuqoridagi mungli, dardli, navobaxsh, nolakor g'azal-ashulalarni tanlab sharhlagan. Fikrimizga dalil shuki, shoir Navoiyning:

*Ko'yida yig'lar edim men zor har
bemorg'a,
Emdi yig'larlar bari bemorlar men
zorg'a*

matlali g'azali sharhini quyidagicha boshlaydi: *"Bugun tongda bir qo'shiq eshitdim. Kun bo'yi bu qo'shiqning nolasini qulog'imdan ketmadi. Uning so'zlarini takrorlab devona bo'lib yurdim"*. Sharh qanday kayfiyat, qanday so'zlar bilan boshlangan bo'lsa, xuddi shunday yakunlanadi: *"Bugun tongda men shu qo'shiqni eshitdim, tongdan beri uning so'zlarini ichimda takrorlab devona bo'lib yuribman"*. Demak, shoir sharhlari yaratish jarayonida devona – majnun ruhiyatida, o'z ta'biri bilan aytganda, *"faqat she'r va qo'shiq kayfi bilan"* yashagan. Sharhni qog'ozga tushirguncha bu ruhiyatdan qutulolmagan, kayfi tarqamagan, devonalikdan o'ziga kelolmagan.

Sharhlarning yuqoridagidek kompozitsiyasi ularning bir zarb, bir nafas bilan yozib tugallanganligidan ham dalolat beradi. Bu esa, ayni paytda, sharhlarning juda ixcham, lo'nda, nafis, tafakkur bilan tuyg'ularning uyg'un mujassamligida yuzaga kelishini ham ta'minlagan. Bular ham E.Vohidov talqinlarining o'ziga xos xususiyatlaridandir. Ammo bu talqinlarning o'ziga xosligi yana shundaki, ular olimlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy talqinlardan farq qiladi. Ziyolilarimizdan biri "To quyosh sochgayki nur..." kitobida bu borada shunday mulohaza bildiradi: "Mumtoz adabiyotimiz, ayniqsa, Navoiy ijodiyotini, g'azaliyotini daqiq (raqiq) tushun-

ishda Erkin Vohidovga yetadigan ijodkor bor desak, xato qilgan bo'lamiz" [To quyosh sochgayki nur, 2016: 318]. Ijodkorlarning salohiyatini bu tarzda muqoyasa qilish o'rinli emas, nazarimizda. Hatto, E.Vohidovning "So'z latofati" kitobini Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asariga tenglashtirilgan o'rinlar bor. O'ylaymizki, E.Vohidovning o'zi ham bunday da'voga qo'shilmagan bo'lardi. Bu sohada adolatli bahoni atoqli munaqqid, ustoz I.G'afurov bergan. U "So'z talqinlari" maqolasida yozadi: "Erkin Vohidovning kitobi etimologik yoki izohli lug'at emas. Bu shoir odam yozishi mumkin va joiz va tabiiy bo'lgan so'z talqinlari kitobi: shoirona talqinlar kitobi... Zero kitob lug'at emas, chin ma'noda esse (badiya)" [To quyosh sochgayki nur, 2016: 300]. "Muhokamat ul-lug'atayn" esa ilmiy asar, badiya emas. U, Yevropa tili bilan aytganda, ilmiy-nazariy traktat. Uni A.Dantening "Ona tili haqida traktat" asari bilan taqqoslash mumkin va taqqoslab tekshirilgan ham [Jumaev N., 1975; Jumaev N., Ajoyib o'xshashliklar, 1976: 4-son]. E.Vohidovning g'azal talqinlari ham ilmiy sharhlar emas, balki adabiy badiyalardir. To'g'ri, ular ilmiy mushohada yuritish, tahlil etish, xulosalar bayon qilish jihati bilan ilmiylikdan ham xoli emas. Lekin ularda shoirona badiiy mushohada yetakchilik qiladi. E.Vohidov talqinlari shoirona shuur va ilmiy tafakkur uyg'unligi mahsulidir.

E.Vohidovning talqinlarida ilmiy sharhlar bilan mushtaraklik, ayni vaqtda, tafovutlar ham mavjud. Buni ikki navoiyshunos olimning sharhlari bilan taqqoslab ko'rishimiz mumkin. Keling, akademik A.Rustamov, professor N.Komilov va shoir E.Vohidovning Navoiy "Qaro ko'zum" g'azali matla baytiga bergan talqinlarini taqqoslab ko'raylik.

*Qaro ko'zum, kelu mardumlig' emdi fan
qilg'il,
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan
qilg'il.*

Akademik A.Rustamov talqini: "Bayt "qaro ko'zum" degan murojaat bilan boshlanadi. Bu so'zning baytdagi "mardum", "mardumlig'" va "ko'zum qarosi" so'zlariga nisbati bor. Shuning uchun Navoiy o'z manzuriga, masalan, "dilo", "e jon" yoki boshqa biror so'z bilan murojaat qilmasdan, "qaro ko'zum" deb murojaat etgan. "Mardum" deb aytiladigan ikkita so'z bor, biri "xalq" va "kishi" ma'nosida, ikkinchisi ko'z qorachig'i ma'nosida. Navoiy mazkur baytda shu ikki so'zning shakldoshligidan foydalalanib, birlashtirib ishlatgan. Bu san'at hisoblanadi va "iyhom" deb ataladi. "Fan qilmoq" baytda "odat qilmoq" ma'nosida ishlatilgan. "Fan" so'zining hunar, kasb ma'nosi bor, hunar doimiy mashg'ulot bo'lgani uchun bu so'zning "odat" so'zi bilan ma'nodoshligi bor. "Vatan qilmoq" o'rnashib olmoq ma'nosida ishlatilgan.

Demak, Navoiy baytda ey mening qora ko'zligim, kel endi mardumlikni, ya'ni ko'z qorachig'i bo'lishni va kishilikni odat qil va mening ko'zimning qorasida mardum, ya'ni ko'z qorachig'i kabi va kishilar singari o'rnashib ol, degan fikrni bayon qilgan. Kishilikni odat qil, kishi kabi deyishdan murod pari yoki farishtaga o'xshab ko'zdan g'oyib bo'lma deyishdir. Bunda manzurning nodirligiga ham ishora bor.

Ko'zimning qorachig'i bo'l deyishdan maqsad ko'z o'ngimdan ketma deyishdir. Kishining ko'z o'ngidan go'zal suvratning ketmasligi uning ma'naviy kamoliga sabab bo'ladi" [Rustamiy A., 2003: 104-105].

Endi professor N.Komilov talqiniga diqqat qiling: "Darhaqiqat, ushbu

g'azalda oshiqning yetuklik va kamolot timsoli – Komil insonga muhabbati ifodalanadi. Tasavvuf lug'atlarida ko'z – Komil inson timsoli deb sharhlanadi, chunki u faqat o'zgalarni ko'radi, o'zini esa ko'rmaydi. Agar yuz ilohiy zuhurot ramzi bo'lsa, ko'z shu zuhurotni to'plagan manba – mazhari komillikning ramzi. Ko'zni sevish orqali ilohiy jamolni sevish ifodalanadi. Navoiy qahramoni ana shu Insonni o'z ko'zining gavhariga aylantirmoqchi – qalb chirog'i etmoqchi bo'ladi. Shoir ishlatgan so'z o'yinlari ham shunga yo'naltirilgan: "mardum" – ko'z qorachig'i va insoniylik ma'nosida keladi, "fan" – odat, o'rganish va tadbir.

Shunday qilib, baytning mazmuni: "Qora ko'zligim (go'zal yorim), kel endi, odamiylik muruvvatini rasm qilgin (o'rganib ol); ko'zimning qorachig'iga (gavhariga) gavhar (qorachig') kabi o'rmashgin (maskan tut)". Alhosil: "qora ko'zligim, kelginda, lutf-shafqat, vafo rasmini tuz (vafoli bo'l), men uchun sen ko'z qorachig'iday azizsan, joying ko'zim ichida".

Demak, Komil inson, Piri komil Navoiy uchun eng aziz, eng mahjub, eng qadrli va uni ko'z qorachig'iday asrashga intiladi, unga talpinadi, butun vujudi bilan shu vujudga singib ketmoqchi bo'ladi.

Bunday baytlar klassik tanqidchilikda shoirlik mahoratining baland namunasi – husni matla (shohbayt) deb baholangan" [Komilov N., 2012: 175-176].

Endi e'tiboringizni E.Vohidov talqiniga qarating: "Bu so'zlarda qanchalik vafodorlik, fidoyilik bor, barkamol muhabbat bor, she'riy ifoda esa naqadar teran, jozibali, serjilo. "Mardum" so'zining ikki ma'nosi bor. Mardum – odam, mardum – ko'z gavhari. "Qaro ko'zum" deya murojaat etadi shoir sevikli yor-ga, kelu mardumlig', ya'ni odamlik,

odamgarchilik fanini ko'rsat, ko'zum qarosida mardum kibi, ya'ni gavhar kabi vatan qilg'il, makon qilg'il. Birgina baytda necha ma'no tovlanishlari – ham mardumning ikki ma'nosi, ham "qaro ko'zum"ga muqobil "ko'zum qarosi" ifodasi – naqadar teranlik, nafosat, mukammallik bor. Oshiq yorni faqat ko'rib turishni emas, ko'z qorachig'iga jo qilmoqni istaydi va qayon boqmasin, oygami, gulgami, shabnamgami – bari-ga yor jamoli orqali boqishni orzu qiladi, barida uning timsolini ko'rishni tilaydi" [Vohidov E., 2014: 120-121].

Anglashiladiki, ikki olim va bir shoir o'zaro bir-birlaridan bexabar holatda "Qaro ko'zum" g'azalining har biri o'ziga xos talqinlarini ijod etganlar. Shunga qaramay, ulardagi fikriy nuqtai nazar va mazmun bir-biriga yaqin, deyarli bir xil. Asosiy tafovut uslubda. Ilmiy uslub bilan shoirona uslub yaqqol ajralib turibdi. A.Rustamov g'azalni murakkab ilmiy uslubda sharhlagan. Sharhning tili olimlar uchun tushunarli, lekin oddiy odamlar uchun anchagina og'ir. A.Rustamov g'azal mazmun-mohiyatini, asosan, matndagi so'z-iboralarning mag'zini chaqish yo'li bilan yuzaga chiqargan. E.Vohidov sharhi xosu avomga birday tushunarli. N.Komilov sharhida ham birmuncha ilmiy murakkablik bor. U g'azal mazmun-mohiyatini ochishga tasavvufiy nuqtai nazardan yondashgan. Unda dunyoviy talqin bilan tasavvufiy talqin uyg'un. Lekin shu uyg'unlikda bir ishtiboh yaqqol sezilib turibdi. Unda lirik qahramon qaroko'zga "lutf-shafqat, vafo rasmini tuz (vafoli bo'l)" deyiladi va ayni paytda u komil inson, piri murshid sifatida ham tavsif etiladi. Savol tug'iladiki, agar u komil inson bo'lsa, unda lutf-shafqat, vafo rasmi mukammal shakllangan bo'lmaydimi? Bu ishtiboh g'azalda komil inson

yoki pir emas, balki an'anaviy sevikli yor obrazi nazarda tutilganligini tasdiqlaydi. E.Vohidov talqinlarida hech qanday ishtiboh sezilmaydi.

Darvoqe, keyingi paytda e'lon qilinayotgan g'azal sharhlarida tasavvufiy talqinga shu qadar ruju qo'yilmoqdaki, asar matnida bunga hatto biror ishora bo'lmasa ham, shorihlarimiz o'zlari tasavvufiy munosabat yoki obrazlarni to'qib chiqarmoqdalar. Hatto, tahlilni yaxshi uddalab qo'yganlaridan keyin ham, har ehtimolga qarshi, bir orada *"bu g'azalda ishq haqiqiy yoki ilohiy ishq kuylangan"* degan gapni qistirib o'tadilar. Go'yoki shunday demasalar, bir kamchilik yo xatoga yo'l qo'yganday sezadilar o'zlarini. Xo'sh, E.Vohidov nega g'azal sharhlariga tasavvufiy nuqtai nazardan yondashmagan? Yo u tasavvufni bilmagan, tushunmagan va tasavvuf to'g'risidagi maqola-kitoblarni o'qimaganmi? "Shoiru she'ru shuur" bilan "So'z latofati" kitobi o'rtasidagi 20 yillik davrda tasavvufni o'rganish va yoritish avjiga chiqdi. Bu sohada yuzlab maqolayu kitoblar chop etildi. Bizningcha, E. Vohidov ongli bir ziyoli sifatida bularning hammasidan xabardor bo'lgan. Biz "Shoiru she'ru shuur" bilan "So'z latofati" kitobidagi talqinlarni qiyosiy o'rganib chiqdik. G'azal talqinlarida shoir tomonidan kiritilgan ayrim tahrirlar bor. Lekin tasavvuf nuqtai nazaridan yondashib kiritilgan tahrirlar yo'q. Nazarimizda, buning sababi shuki, shoir tahlil yo'nalishini sun'iy ravishda, zo'rma-zo'rakilik bilan tasavvuf tomoniga burishni, yo'q joydan tasavvufiy ma'nolar to'qib chiqarishni istamagan. Minba'd g'azal tahlillarida bundan ibrat olsak bo'lardi.

E.Vohidov rasmiy ilmiy daraja va unvonlarga ega bo'lmasa-da, u shoir-lar olimi edi. Alloma, mutafakkir edi.

Uning g'azal talqinlari saviya e'tibori bilan ayrim eng oliy ilmiy daraja sohiblarinikidan ham baland turadi. G'azal talqinlarida bilim va ilm bilan birgalikda asar ruhiyati, mazmuni, so'z-iboralarni to'g'ri tushunish hamda to'g'ri sharhlash asosiy o'rinda turadi. Bir mahal-lar "Toshkent oqshomi" gazetasida "Mashhur g'azallar tahlili" rukni ostida qator g'azallarining sayoz talqinlari berildi. Ularda g'azalni to'g'ri tushunish va to'g'ri sharhlashda qator nuqsonlar sodir bo'lardi. "O'z AS"ning navbatdagi sonlaridan birida "G'azal va tahlil" sarlavhali tanqidiy maqola e'lon qilindi. Maqolaga javoban professorlar I.Abdullaev, A.Rustamov, A.Hayitmetov, G'.Karimovlarning aksado maqolalari chop etilib, g'azal tahlili muammosi qizg'in muhokama etildi. Maqolada E.Vohidov talqiniga ham sazovor bo'lgan Fuzuliyning bir g'azali tahlilidagi kamchiliklar quyidagicha ko'rsatilgan edi: "Olimning Fuzuliyning "O'landan so'r" radifli g'azaliga yozgan tahlili ham ishtibohlarga to'la. Tahlil jarayonida u g'azalnavis fikr-mushohadalarining obrazlilik xususiyatlarini inobatga olmaydi. *"Bu pinhon nuktani bir voqifi asror o'landan so'r"* misrasini *"bunday yashiringan nozik ma'noni birorta sirlarni bilguvchidan so'ra"* deya jo'nlashtirib bayon etish keraksizgina emas, zararli hamdir. Badiiyatning betakror namunalariga bunday sovuqqonlik bilan yondashish kitobxonning klassik asarlarga nisbatan ixlosini susaytiradi, adabiy didini o'tmaslashtiradi. *"Mardumi g'ofil"* iborasini *"uyquda yotgan odam"* deb o'girishning estetik tahlilga nima daxli bor?!

So'zning lug'aviy ma'nosi bilan badiiy ma'nosi o'rtasida yer bilan osmoncha farq bo'lishi mumkin. Masalan, *"xarobi jomi ishqam"* birikmasining poetik

ma'nosi "men ishq jomining maftuni, fidoyisi, qurboniman" degani. "Xarobot ahli" deganda "vayronalarda yashovchilar" emas, balki muhabbat ahli tushuniladi. Nainki "xummor o'lan"larni "mastlikdan keyin bosh og'rig'i bo'lganlar" deya tushunish va tushuntirish joiz bo'lsa? Fuzuliyning rind va oshiq lirik qahramonini bugun ko'cha-ko'ylarda boshog'riq bo'lib, mast-alast yurgan alkogollarga tenglashtirib qo'ymayapmizmi?!"[Jumaev N., 1987: 27-son].

E.Vohidovning Fuzuliy mazkur g'azaliga talqini ham o'sha 1987 yili "Shoiru she'ru shuur" kitobida bosilib chiqdi. Shoir talqinida bunday ishtibohlar aslo yo'q. U g'azal mazmunini chuqur tushungan, his etgan hamda sodda va samimiy sharhlab bergan. Mana uning bir bayt talqini: "Osmon uzra son-sanoqsiz yulduzlarning sayri kimga ayon? Albatta, kechalarni g'af-lat uyqusiga berilgan bedard, parvosiz, g'ami yo'qlarga emas, balki tungi osmonga hasratli ko'zlarini tikib tongga qadar bedor yotganlarga ayondir. Va

binobarin, osmondagi yulduzlarning oqishidek ko'z yoshlari oqqan, yurak bag'ri tungi osmondek tiyra bo'lganlar ahvolini g'ofil odamlar qayoqdan bilsin?

Ko'zi yoshlularing holin na bilsun mardumi g'ofil,
Kavokib sayrini shab to sahar bedor
o'landan so'r".

Xullas, mumtoz g'azallarni sharhlash E.Vohidov serqirra ijodining muhim bir yo'nalishini tashkil etadi. E.Vohidovning talqinlar tajribasi ilm va ijod ahli uchun o'rnakdir. Mumtoz asarlarimizning xalqimiz uchun juda zarur ilmiy-ommabop sharhlarini yaratish noyob iste'dod mevasidir. Mumtoz asarlar tabdili zahirasini vujudga keltirishga faqat olimlarimiz va ayrim shoir-larimizning salohiyati kamlik qiladi. Mumtoz adabiyotimizning zamonaviy tabdillarini yaratishda boshqa ijodkorlar ham E.Vohidovning ushbu an'anasi-ni munosib davom ettirsalar, tahsinga sazovor bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Vohidov E. Shoiru she'ru shuur. "Yosh gvardiya" nashriyoti, – T., 1987.
To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov: hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. "O'zbekiston", – T., 2016.
Jumaev N. Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" asarida xalq tili elementlari. Diplom ishi. Tosh DU, 1975 yil.
Jumaev N. Ajoyib o'xshashlik. "Fan va turmush" jurnali, 1976 yil, 4-son.
Aliybek Rustamiy. Adiblar odobidan adablar. "Ma'naviyat", – T., 2003.
Najmiddin Komilov. Ma'nolar olamiga safar. "Tamaddun", – T., 2012.
Erkin Vohidov. So'z latofati. "O'zbekiston", – T., 2014.
Nusratulla Jumaev. G'azal va tahlil. "O'z AS", 1987 yil, 27 fevral soni.

ПИСЬМЕННОСТЬ, КАК ФАКТОР ПРЕЕМСТВЕННОСТИ СОГДИЙСКОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

Вера МУХАМЕДЖАНОВА,

кандидат исторических наук, доцент,
заведующий кафедрой общественно-гуманитарных
наук Ташкентского государственного университета
узбекского языка и литературы имени А.Навои.
muhamedjanvera@mail.ru

Abstract: *The history of the people inhabiting the ancient Uzbekistan of Central Asia has deep historical roots in developing their social, cultural, and philosophical values. The role of these ancient people played in the history of humankind, and their language, diverse scripts, vibrant culture, colorful traditions, and rich heritage are tremendous.*

In her research, the author presents the results of the archeological excavations from the Central Asian region. One of the main ancient inhabitants lived in this area were the people of Sogdiana, famous for their spiritual wealth, and rich cultural heritage. The author examines unique features of the civilization Sogdiana and their rich heritage.

Key words: *scripts, heritage, ancient culture, succession, coins, traditions, language, history, civilization*

Введение

Основой существования любого государства, нации, народа являются язык, культура и обычаи, выразителем которых становится собственная национальная письменность. Письменность, как совокупность письменных средств общения, включающих графику, алфавит и орфографию народов Узбекистана на разных этапах исторического развития Центральной Азии объединялась в соответствии с историческим периодом единой системой письма и алфавита. Несмотря на сложную

историю письменной культуры согдийской цивилизации, она играла огромную взаимосвязующую и культурно - преобразующую роль в существовавших сообществах и вносила истинный весомый вклад согдийского народа в историю международных отношений, который за свою долгую историю создала собственную самобытную письменность.

Согдийцы - одна из древнейших народностей арийского происхождения. На это прямо указывает и Авеста, в которой среди стран арийцев упоминается и арийская об-